



УДК:633.5

“Sho‘rtangazkimyo majmuasi atrofida tarqalgan tuproqlarning ekologik  
holati”

Mingboyeva Durdona Olim qizi  
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

**Annotasiya.** Ma’lumki hozirgi kunda yer sharining turli hududlarida tez suratlar bilan yuzaga kelayotgan ekologik jaroyonlarni o‘rganish o‘ta dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu jumladan so‘ngi yillarda sanaot korxonalari atrofidagi tuproqlarning ekologik holati yomonlashuvi qayd qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 31-oktayabrdagi 292-son “2011-2015yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit davlat monitoringi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2013-yil 27-maydagi 142-son “2013-2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof- muhit davlat muhofazasi bo‘yicha harakatlar dasturi to‘g‘risidagi qarorlari va 2017-yil 7- fevraldagagi 4947-son .

**Kalit so‘zlari.** Tuproq, o‘simlik, iqlim, suv, agrokimyoviy tadqiqot, tajriba tizimi, irrigatsiya va shamol eroziyasi, sho‘rlanish, ifloslanish, gumus, NPK, og‘ir metallar, oltingugurt.

**Аннотация.** Известно, что изучение экологических процессов, происходящих в различных регионах земного шара, с помощью быстрых фотографий является одним из наиболее актуальных вопросов. В том числе ухудшение экологического состояния почвы вокруг промышленных предприятий за последние годы. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 октября 2011 года № 292 «Об утверждении Программы государственного экологического мониторинга в Республике Узбекистан на 2011-2015 годы» № 142 от 27 мая 2013 года «В Республике Узбекистан» в решениях на 2013-2017 годы о программе мероприятий по государственной охране окружающей среды и № 4947 от 7 февраля 2017 года.

**Ключевые слова.**Почва, растительность, климат, вода, агрохимические исследования, экспериментальная система, ирригация и ветровая эрозия, засоление, загрязнение, гумус, NPK, тяжелые металлы, сера.

**Abstract.** It is known that the study of ecological processes occurring in different regions of the globe with rapid photographs is one of the most urgent issues. Including the deterioration of the ecological condition of the soil around industrial enterprises in recent years. The Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 292 of October 31, 2011 "On approval of the state environmental monitoring program in the Republic of Uzbekistan in 2011-2015" No. 142 of May 27, 2013 "In the Republic of Uzbekistan in 2013-2017 decisions on the program of actions for the state protection of the environment and No. 4947 dated February 7, 2017.

**Keywords.**Soil, vegetation, climate, water, agrochemical research, experimental system, irrigation and wind erosion, salinity, pollution, humus, NPK, heavy metals, sulfur.

**Kirish.**Dunyo bo'yicha global muammo hozirgi kunda atrof muhit ifloslanishining oldini olishdir. Har bir sohada amalga oshirilayotgan tadbirlar olib borilmoqda.2020 yil 1-yanvardan Xalqaro Dengiz Tashkiloti (IMO) ommaviy konferensiyasida kemalarda ishlataladigan yoqilg'i moylaridan 0,50% m/m hajmda oltingugurtni kamaytirish uchun global chegarasi o'rnatilgan.Neft mahsulotlarini qayta ishlash zavodlaridan ajralib chiqayotgan oltingugurtli birikmalar ta'sirini kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlarning olib borish imkoniyati yaratilmoqda.

Oltingugurtni kislotali yomg'ir yoki quruq aerozol holatida havodan tuproq va o'simlik qoplami ustiga tushishini, o'simliklarning vegetativ va generativ organlarining holatiga ta'sir qilishini o'rganish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Ekologik jihatdan noqulay tuproq va havo sharoitlariga chidamliligi bilan farqlanadigan o'simliklarni tanlash, to'g'ri agromeliorativ tadbirlarni va biopreparatlarni qo'llash ham shu dolzarb muammolar tarkibidan joy oladi.[1]

**Tadqiqotda foydalanilgan usullar:** Tuproq tahlili O‘zPNTI ning umumiyligini qabul qilingan usullari (1977) Arinushkaning tuproqning kimyoviy tahlillari qo‘llanmasi ”Ximicheskiy analizu pochvi” (1970) bo‘yicha bajarildi.

**Asosiy qism.** Shundan 743 ming tonnasi dizel yoqilg‘isi 311 ming tonnasi nafta va 21 ming tonnasi suyultirilgan gazni tashkil etadi. Yangi zavod ishga tushirilishi natijasida iqtisodiyotning real tarmoqlarini rivojlantirish mamlakatimizning transit salohiyati yanada oshirish shuningdek neft, mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning asosiy qismini qanoatlantirish va neft importi hajmini kamaytirish orqali xorijiy valyuta sarfini tejashga erishiladi.

Qurilish- montaj ishlar 2020 yilning ikkinchi yarmida nihoyasiga yetkazilishi zavodda qo‘shimcha 682 yangi ish o‘rni yaratilishi mo‘ljalangan. Natijada neft-kimyo yo‘nalishini rivojlantirishga keng yo‘l ochiladi. Birinchi bosqichda yuqori qiymatli xomashyo sintetik naftani qayta ishlab yangi turdagini polietilen va polipropilen bilan birgalikda piroliz distilyatidan yangi turdagini mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyati hududda texnologik klasterni barpo etishga zamin yaratadi, istiqbolda kimyo avtomobilsozlik farmatsevtika muhim omil bo‘ladi. Loyiha zavodning mavjud maydonida amalga oshirilib qurilish ishlari kompleksning ishlab chiqarish jaroyoniga ta’sir etmagan holda olib boriladi.

Ta’kidlash joizki zavodning mavjud intellektual va texnologik salohiyatidan foydalangan holda qo‘shimcha ishlab chiqariladigan mahsulotning tannarxini sezilarli darajada kamaytirish va investitsiyalar samaradorligini yanada oshirishga erishildi. Qurilish ishlari 2020-yillning to‘rtinchi choragida yakunlanadi va loyiha doirasida 250 yangi ish o‘rni yaratiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz iqtisodiy rivojida muhim o‘rin tutadigan ushbu loyihalarni moliyalashtirish uskunalarni o‘z vaqtida keltirish qurilish ishlaringin yo‘l xaritasini ishlab chiqish korxonalarini belgilangan muddatlarda ishga tushirib aholini ish bilan ta’minlash bo‘yicha zarur ko‘rsatmalar berdi. Qashqadaryo viloyati o‘zining geografik joylashuviga ko‘ra har tomonlama qulay hududda joylashgan. Qashqadaryoda bundan bir necha yuz yillar oldin dehqonchilik bilan birga savdosotiqlari hamda iqtisodiy munosabatlar juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Lekin viloyat tuproqlarini o‘rganish faqatgina XX asrning boshlaridan rivojlana

boshlagan.Umumiy holda atmosfera zararli moddalarning chiqindilari qo‘ydagilarga bo‘linadi:

1.Gazsimon(Oltingugurt dioksidi, azot oksidi, karbon mooksidi uglevodorodlar va boshqalar.

2.Suyuq,kislotalar, gidroksidlar,tuzlarni eritmasi va boshqalar.

3.Qattiq (karsinogen moddalar qo‘rg‘oshin va uning birikmalari,organik va nororganik chiqindi gazlar,turg‘un moddalar va boshqalar )

Bu chiqindi gazlardan biri oltingugurt bo‘lib,gazning fiziologik va biokimyoviy ahamyatiga ko‘ra azot, fosfor, va boshqa oziq elementlari bilan bir qatorda turadi.

Oltingugurt (sulfur-S) Oltingugurt saqlovchi amina kislotalar, vitaminlar, fermentlar tarkibiga kirib, uglevodlar, moy kislotalari, sentezida katta rol o‘ynaydi. Bundan tashqari oltingugurt o‘simliklarning nafas olishida, o‘sishida, fotosentez prosseslarida faol ishtirok etadi.[2]

L.T.Tursunov T.A.Abdrahmonov Z.A.Jabborov M.F.Fahrutdinova (2008) tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkinki, aktinomitset va nitrifikator bakteriyalar ifloslanishdan keyin kamayib ketgan. Natijada mikroorganizmlar faolyati bilan bog‘liq biokimyoviy jaroyonlar, ya’ni fermentlar faolligi susayishi kuzatiladi. Tuproqda kechadigan barcha biokimyoviy jaroyonlar bevosita tuproqdagi fermentlarning funksiyasi bilan bog‘liq. Fermentlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, tuproqda kechadigan bioreaksiyalarni ming va million marta tezlashtiradi.Aniqlanishicha hozirgi vaqtda tuproqda 40 ga yaqin (ureaza, katalaza, invertaza, peroooksidaza, polifenoloksidaza va boshqalar) fermentlar mavjud bo‘lib tuproqda turli xil vazifalarni bajaradi.Xususan fermentlardan proteaza va ureaza fermentlari tuproqdagi organik azotning minerallanish jaroyonini xarakterlaydi. Ya’ni tuproqdagi nitrifikasiya va ammonifikasiya jaroyonini faollashtiradi va azot bioelementini o‘simliklar oson o‘zlashtiradigan holatiga olib keladi.Qashqadaryo hududida tarqalgan och-tusli bo‘z tuproqlar cho‘l zonasini taqir tuproqlari bilan chegaradosh bo‘lib ularning gumus miqdori ham cho‘l zonasini tuproqlariga juda yaqin.Tuproq unumdarligi uning sifat tarkibi suvgaga chidamligi, donodorlik xususiyati va gumus zahirasiga bundan tashqari tuproqning mikrobiologik

jaroyoniga o'simliklarning oziqlanish unda sodir bo'layotgan agrotexnik o'zgarishlarga va unumdorligiga bog'liq.[3]

Mumkin bo`lgan bo`g`lanish miqdori 1000mm dan 2000-2500 mm gacha o`zgaradi va o`rtacha yillik yog`in miqdoriga nisbatan 3-20 marta ortiq bo`ladi. Bug`lanadigan suvning 80-85% yilning iliq davrida (may oyida oktyabr oyigacha) to`g`ri keladi.Yog`inlar yil davomida nihoyatda notekis taqsimlangan.Eng ko`p yog`in bahor (mart-may) oylarida tushadi.Yillik yog`in miqdorining 45-50% bahorga, 37-40% qishda (dekabr-fevral), 10-15% kuzda (sentyabr-noyabr) va atigi 2-3% yozda (iyun-avgust oylarida tushadi.Yog`inlarning qish va bahorda yog`ishi qishloq xo`jaligi uchun ancha qulaylik tug`diradi.Chunki bu paytlarda suv kam bug`lanib, tuproqda nam to`planadi yaylovlarda o'simliklar va bahorgi ekinlarning o'sishi uchun sharoit yuzaga keladi.Yoz oylarida esa yog`inlarning deyarli yog`masligi qishloq xo`jaligi ekinlarini sun`iy ravishda sug`orishni toqoza etadi. G`uzor tumani dengiz sathidan balandligi 524 m, yillik yog`in miqdori esa 285 mmni tashkil etadi.Hududlarida joylashgan asosiy meteostansiya va meteopostlardan olingan ma'lumotlardan foydalilanildi.Bu meteostansiyalar asosan Kogon, Sho'rtan, Qarshi meteostansiyalaridan iborat bo`lib,Qarshi cho`li iqlimining asosiy xususiyatlarini to`la aks ettiradi. Yog`in miqdorining kamligi yuqori havo harorati va ko`p miqdordagi quyosh energiyasi, o'z navbatida yana bir xususiyatni yuqori darajadagi bug`lanishni sodir etadi.Yillik bug`lanish xatto 2300-2500 mm ni tashkil qiladi, havoning nisbiy namligi 16-20 foizgacha pasayib namlanish koeffisienti - 0,06-0,08 ko`rsatkichlarida kuzatiladi.Yog`inlarni asosiy qismi yilning salqin-qish va bahor fasllariga tog`ri kelishi tuproqdagi namlikni ortishi natijasida tuproqdagi kimyoviy moddalarning jumladan suvda oson eruvchi tuzlarning pastki qatlamlariga qarab yuvilib turli darjada migrasiyalanishiga sabab bo`ladi.[4]

# Research Science and Innovation House



Research Science and  
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN  
UZBEKISTAN” JURNALI**

**VOLUME 1, ISSUE 9, 2023. DECEMBER**

**ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023**

**ISSN 2992-8869**



Research Science and  
Innovation House

Havo harorati o‘zgarishi Qarshi va G‘uzor meteostansiya ma’lumotlari

Yillar	Janvar	Fevral	Mart	aprel	May	Iyun	Uyul	Yavgust	Sentabr	Oktabr	noyabr	Dekabr	Yilik o‘rtacha
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
<b>Qarshi</b>													
2009	0,9	6,3	12,4	20,7	27,4	30,2	29,5	27,3	21,6	15,2	11,2	6,5	17,43
2010	5,4	7,1	12,5	10,6	22,3	28,4	29,6	29,1	23,0	19,0	11,0	-0,6	15,95
2011	4,8	6,6	9,4	15,4	20,4	26,8	30,4	28,0	22,7	18,2	9,4	4,8	16,40
2012	6,7	9,0	11,9	16,2	20,9	29,9	29,2	26,7	22,7	14,4	12,7	4,7	17,54
2013	3,7	3,1	13,4	17,6	22,5	28,9	31,6	26,7	24,0	16,0	9,3	6,5	16,89
2014	-0,3	9,8	12,2	18,4	23,9	29,4	30,4	29,1	21,4	19,3	10,3	1,5	17,13
2015	3,5	7,4	10,0	20,0	24,2	29,8	30,2	27,6	22,6	12,9	10,4	3,1	16,80
2016	-6,8	-0,2	16,2	18,7	25,5	29,6	30,2	28,8	21,8	15,3	8,9	5,0	10,25
2017	3,8	7,9	12,6	13,6	22,7	26,6	29,8	27,0	21,6	14,5	9,0	5,3	16,2
<b>G‘uzor</b>													
2009	0,5	10,1	-	19,2	-	30,5	30,5	28,7	21,8	15,2	10,1	4,3	17,09
2010	5,5	7,1	12,9	16,9	22,2	27,9	29,6	29,6	23,8	13,5	10,2	-1,7	15,04
2011	4,5	5,7	8,9	15,6	20,8	26,7	30,9	29,0	23,0	17,7	9,0	3,6	16,28
2012	6,1	8,7	11,6	16,0	24,9	30,0	29,6	29,0	23,3	14,0	11,8	4,1	17,42
2013	2,7	2,5	13,7	17,9	23,3	29,4	31,6	27,6	25,3	15,9	8,6	5,7	17,01
2014	-0,8	9,4	12,6	19,3	26,5	30,0	31,3	30,8	22,5	19,3	10,2	0,7	16,98
2015	3,6	6,9	9,9	20,8	24,8	30,4	31,4	29,6	24,3	13,2	10,0	2,9	17,31
2016	-10	-0,0	16,3	19,5	26,3	30,8	31,5	30,5	22,7	14,8	8,5	4,6	7,96
2017	6,3	7,6	12,8	14,4	23,5	27,9	30,9	28,7	23,5	13,9	8,7	3,8	16,83

**Research Science and  
Innovation House**

**Xulosa.** Och tusli bo‘z tuproqlarni (10- yildan beri) sug‘orish natijalarida uning morfologik belgilari o‘zgaradi, chimli qatlamlar o‘rniga haydalma qatlamlarida yuzaga keladi. Lekin “Sho‘rtanneftgaz “ unitar korxonasini ta’sirida och tusli bo‘z tuproqlarini morfologik belgilarini o‘zgarishi kuzatilmadi.

2. Quruq och tusli bo‘z tuproqlar har xil yirik qum zarrachalardan tashkil topganliklari sababli ularning hajm og‘irligi yuqori qatlamlarda kichik 1,14dan 1,27 g /sm<sup>3</sup> bo‘lgan kattalikdan iborat bo‘lsa, yangidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarni haydov qatlamida bu ko‘rsatkich 1,30-1,36 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil qilgan.

Tuproqlarni umumiyligini uning zichligiga bog‘liq holda qo‘riq och tusli bo‘z tuproqlarni ustki chimli qatlamida 48,68 % bo‘lsa, yangidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar profilida bu ko‘rsatkichi 54,48% gacha o‘zgarishi kuzatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdrahmonov T. sug‘oriladigan tuproqlarning ifloslanish muomalari va ularning muhofaza qilish tadbirlari O‘zbekiston tuproqlari va yer resurslari ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish.Tashkent, 2008 b.26-28

2. Abdullayev S.I.Mamatov A.Tirov I. Qashqadaryo viloyati geografiyasi Q:Qashqadaryo viloyati bosmoxonasi 1994.b-147

3. Abdullayev S.M. va boshqalar Qashqadaryo viloyati geografiyasi .

4. Abzalov A.Madrahimo va karbomid formaaldegid o‘g‘itlarning qo‘llashning atrof-muhit tozaligini saqlashdagi ahamiyati. O‘zbekiston tuproqlari va yer resurslari ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish. Tashkent 2008.b.185-187

# Research Science and Innovation House